

1. Elektron arizalarni qabul qilish portali

TDYU bakalavriyatiga qabul qilish uchun hujjatlar Internet jahon axborot tarmog'i <http://online.tsul.uz> orqali topshiriladi.

Xorijiy fuqarolar aniq vaqt rejimida elektron shakldagi qabul qilish to'g'risidagi arizani to'ldirib, unda: ta'lim yo'nalishi, ta'lim tili va shakli; xorijiy fuqaro tomonidan oliy ta'lim muassasasini tugatganligi yoki unda oliy ma'lumoti mavjud emasligi; xorijiy fuqaro suhbat o'tkazish qoidalari bilan tanishganligi xususida belgi ko'rsatiladi.

Qabul qilish to'g'risidagi elektron arizaga quyidagilar elektron shaklda ilova qilinadi:

xorijiy fuqaroning pasporti yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat;

belgilangan tartibda legalizatsiya qilingan yoki apostil qo'yilgan xorijiy davlatning vakolatli organlari tomonidan berilgan, o'rganilgan fanlar va ular bo'yicha imtihonlarda olingan baholar (ballar) ko'rsatilgan ta'lim haqidagi hujjat;

3,5 x 4,5 sm o'lchamdagi rangli fotosurat.

Arizaga ilova qilinayotgan har bir hujjat haqiqiyliги saqlanishini ta'minlovchi (har bir dyumga 200 nuqtadan kam bo'lmagan) alohida fayl ko'rinishida bo'lishi kerak. Har bir fayl o'lchami 10 Mbdan oshmasligi lozim.

Arizani hujjatlar «PDF» (portable document format) formatida skaner qilingan nusxalari ko'rinishida ilova qilingan holda jo'natishga yo'l qo'yiladi.

1. Elektron arizalarni qabul qilish portali

TDYU magistraturasiga qabul qilish uchun hujjatlar Internet jahon axborot tarmog'i <http://online.tsul.uz> orqali topshiriladi.

Qabul qilish to'g'risidagi elektron arizaga quyidagilar elektron shaklda ilova qilinadi:

pasport (ID-karta) yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat;

oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom (yoki diplomdan ko'chirma — O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarini davlat granti bo'yicha o'qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova.